

Lingvomadaniy So‘zlarni Tarjima Qilish Jarayonidagi Muammolar Va Ularga Yechimlar

Yusupov Asror Rayimqul o‘g‘li¹, Bekmurodova Muharram Ne‘matullayevna²

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda yangi tushunchalardan biri hisoblanmish lingvomadaniy so‘zlarni tilshunoslik va tarjimashunoslik doirasidagi tadqiq va tahlili yuzasidan bir qancha muhokamalar olib borilgan bo‘lib, bular o‘zbek tiliga xos bo‘lgan madaniy so‘zlarni xorijiy tillarga tarjima qilyotganda tarjimon duch keladigan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniy so‘zlar, muloqot, tarjima, madaniyat, nazariya, tavsiyalar.

Kirish. Lingvomadaniy so‘zlar - bu ma‘lum bir xalqqa aloqador va ularning madaniy qadriyatlarini, an‘analari, urf-odatlarini, dini va geografik jihatdan ushbu hududning joylashuvi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi. Xossatan, bu so‘zlar o‘z madaniy muhitiga xos bo‘lib, boshqa madaniyatlarda yoki tillarda to‘liq o‘xshashi yoki o‘ziga bir xil darajadagi muqobili bo‘lmasligi mumkin. Bunday so‘zlar, biror millat yoki xalqning o‘ziga xos tarixiy, ijtimoiy yoki diniy tajribalari bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘sha jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlarini va turmush tarzini aks ettiradi. Shu kabi so‘zlarni tarjima qilinishida tarjimon qator qiyinchiliklarga shohid bo‘lishi mumkin, chunki ular o‘ziga xos madaniy keng qamrovli tushunchaga ega.

Adabiyotlar tahlili. Yer yuzida odamzod yaralganidan so‘ng, unda tafakkur va ong shakllanib o‘zaro muloqatlar paydo bo‘lganidan boshlab, ular o‘z ehtiyojlariga yetishish uchun so‘zlardan foydalanib kelishadi. Shaxslar bir-birlariga murojaat etishar ekan, tildan istifoda qilishda turli xil zaruratlar kelib chiqadi va shu xususdagi talablarni bartaraf etishda vaziyat va vaqtga mutanosib ravishda madaniy so‘zlar ham yuzaga kelib, ularni qo‘llab boradi. Ushbu so‘zlarni matnda o‘quvchilarga moslashtirib, madaniyatni aks ettirgan holda ma‘noni o‘zgartirmasdan tarjima qilib bera olish tarjimashunoslikdan ko‘zlangan eng muhim maqsadlardan biridir.

Tarjimashunoslik borasida so‘z borar ekan, yodda tutish joizki, adiblarimizdan Abdulla Qodiriyning millatlararo muloqot va o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Qodiriy tarjima davomida so‘zlarni nafaqat aniqliligini balki matnni to‘laligicha estetik va badiiy tomonlarini saqlab, tarjima qilishni faqatgina so‘zlarning o‘zgartirilgan shakli sifatida emas, balki madaniyatlar, millatlar va dunyoqarashlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish deya yondashgan. Bu fikrga ilova qilib, A. Qodiriyning o‘zi quyidagilarni keltiradi: “Tarjima qilish, aslida, ikki madaniyatni birlashtirishdir. Bu ikki madaniyatning o‘rtasidagi farqlarni tushunish va ularni bitta yevropa yoki osiyolik o‘quvchi uchun aniq va sodda tarzda ifodalash muhimdir” [A. Qodiriy 1924: 4].

Tilshunoslik sohasida yangi tushunchalar va yo‘nalishlar paydo bo‘lar ekan, bular o‘z navbatida tarjimashunoslik sohasida ham qator islohotlar olib borishga zamin yaratadi. Buning sababi shundaki, kundalik hayotda butun dunyo bo‘ylab insonlar o‘zaro madaniyatlararo ma‘lumot almashinib, muhokamalar olib borar ekan, bu paytda, albatta, lingvomadaniy so‘zlar o‘rtaga chiqadi. Tilshunoslikda ham tarjimashunoslikda ham yangi tushuncha hisoblanadigan ushbu lingvomadaniy so‘zlarni barcha jihatlarini o‘rganib uni tarjimashunoslikda imkoni boricha mukammal shaklda taqdim qilish, tarjimashunoslik sohasining eng dolzarb sanaladigan masalalaridan biridir. Sababi, madaniy

¹ Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi

² Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi 2215-guruh talabasi



soʻzlar juda muhim boʻlgani bois agarda ularni tarjima qilyotgan paytda ihtilofli holatlar yuzaga keladigan boʻlsa, bu notoʻgʻri tushunchalarning paydo boʻlishi va hattoki, maʼnoning oʻzgarib ketishiga ham olib keladi.

“Til va madaniyat oʻrtasidagi mustahkam aloqalar, ayniqsa tarjima tadqiqotlari sohasida, tarjimani faqat lingvistik jarayon sifatida emas, balki madaniy jarayon yoki faoliyat sifatida qarashni taqozo etadigan nazariyalarni shakllantirgan” [Dr Rafat 2014: 183].

Tarjimashunoslikda lingvomadaniy soʻzlar haqidagi bayonotlar Yevropa davlatlari olimlari tomonidan ham keng koʻlamda oʻrganilgan hisoblanadi. Xossatan, tarjimashunoslik sohasining asoschilardan F.Skleyermeyker, R. Yakobson, E.Nida va L.Venuti kabi nazariyotchilar lingvomadaniy soʻzlar borasida ham oʻz iqtiboslarini keltirishgan.

“Tarjimon avvalo tarjima qilinishi kerak boʻlgan xabar turini va foydalaniladigan lingvistik birliklarning shaklini aniqlashi lozim. U asl matn va tarjimaning oʻzaro ekvivalentligini taʼminlashga eʼtibor qaratishi kerak, shu bilan birga, ikki tilning tuzilish (structural) farqlari imkon boricha, ular oʻrtasidagi maʼno muvofiqligini saqlashi zarur” [R.Jakobson 1959: 5].

Tarjimashunoslikda bu kabi lingvomadaniy soʻzlarning muqobil shaklini topish va madaniy xilma-xilliklarini imkon qadar oldini olish maqsadida tarjima sohasidagi tarjima usullari qamrovini kengaytirish hamda madaniy soʻzlarga chuqur yondashib ularni bir soʻzda oʻquvchiga aniq, tushunarli qilib yetkazish, yuqorida keltirib oʻtilgan tarjimaga bogʻliq muammolarni kamaytirishda muhim rol kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvomadaniy soʻzlar va ularning tarjimasi borasidagi tahlilimizni tarjimashunoslikning ikki tarmogʻi, yaʼni amaliy tarjima (ogʻzaki) va nazariy tarjima (yozma)ning yurtimiz hamda jahon miqyosidagi yutuq va kamchiliklarini baholagan holda qiyosiy tahlil metodi asosida olib boramiz. Lingvomadaniy soʻzlarni tarjima qilish jarayonidagi muammolarni oʻrganish va ularni bartaraf etishda samarali yechimlarni tatbiq qilish esa ushbu ilmiy ishimizdan koʻzda tutilgan maqsad hisoblanadi.

Lingvomadaniyat – xalqning faqat bugungi kundagi turmush tarzini emas balki ularning asrlar davomida saqlanib kelyotgan milliy anʼanalari, badiiy, ilmiy madaniyati, musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, meʼmorchilik, kinomatografiya va teatrlarini ham oʻzida mujassam ettirishi mumkin, shuningdek, bu kabi soʻzlari ham nazariy ham amaliy tarjimada toʻgʻri tushunib talqin qilish va til va madaniyatlar oʻrtasidagi ihtiloflarni nazardan chetda qoldirmaslik tarjimondan talab qilinadi. Yozma tarjimada lingvomadaniy soʻzlarning koʻproq leksikografik jihatlariga eʼtibor qaratiladigan boʻlsa, ogʻzaki tarjimada bu soʻzlarning gapda tutgan oʻrni hamda u qatnashib kelyotgan kontekstga koʻproq urgʻu beriladi.

Uzoq yillar davomida to bugungi kungacha dunyo miqyosida koʻplab tarjimashunos olim va lingvistlar tomonidan lingvomadaniy soʻzlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish muddaosida bir talay nazariyalar ilgari surildi. Bunga dalil oʻlaroq quyidagi yechimlarni misol keltirish mumkin:

Badiiy (adabiy) tarjima (literary translation) – bu badiiy va adabiy asarlarning bir tildan boshqa tilga oʻgirilish jarayoni boʻlib, unda faqat soʻzlar yoki grammatik tuzilmalarni koʻchirishdan koʻra, asarning estetik, madaniy va maʼnaviy mohiyatini yangi til va madaniyat kontekstida aks ettirish maqsad qilinadi. Badiiy tarjima, oʻz navbatida, original matnning hissiy kechinmalari, uslubiy xususiyatlarini, ritmini va shaklini saqlash bilan birga, uning semantik mazmunini ham tarjima tilda toʻgʻri va samarali ifodalashni taqozo etadi. Shu bilan birga, badiiy tarjima madaniyatlararo oʻzaro aloqalarni rivojlantirish va sanʼat asarlarini xalqaro miqyosda targʻib etishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi.

Moslashtirib tarjima qilish (adaptation) – bu tarjima metodologiyasining bir turi boʻlib, unda tarjimon asliyat matndagi madaniy, lingvistik va stilistik elementlarni yangi til va madaniyatning kontekstiga moslashtiradi. Bu jarayonda tarjimon, asl matnning maʼnaviy va estetik qadriyatlarini saqlab qolish bilan birga, til va madaniyatlararo farqlarni inobatga olgan holda, matndagi baʼzi ibora va tasvirlarni



moslashtiradi yoki o'zgartiradi. Moslashtirish, ayniqsa, badiiy va adabiy asarlarda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu usul original matnning his-tuyg'ulari, uslubi va ma'naviy mazmunini yangi tilga va madaniyatga to'g'ri ko'chirishni taqozo etadi.

Qo'shib tarjima qilish (addition) – bunda tarjimon original matnning ma'lum qismlarini yoki elementlarini qo'shimcha izohlar, tushuntirishlar yoki kontekstual izohlar bilan to'ldiradi. Bu usul, asosan, ma'lum madaniy yoki lingvistik tafovutlarni to'g'rilash, matnning nozik jihatlarini tushuntirish yoki o'quvchiga aniqroq va to'liqroq ma'lumot yetkazish maqsadida qo'llaniladi.

Tasviriy tarjima – bu badiiy yoki adabiy matnlarni tarjima qilishda qo'llaniladigan usul bo'lib, unda tarjimon asarning tasviriy va obrazli ma'nolarini saqlab qolishga intiladi va kontekstdagi holatni tasvirlaydi. Bu metodda tarjimon original matndagi poetik tasvirlarni, obrazlarni, metaforalarni va simvollardan foydalanishni yangi tilga moslashtirishga harakat qiladi. Tarjimada asosiy maqsad nafaqat so'zlarni, balki matnning estetika va emotsiyasi, obrazli ifodalarni ham aniq va to'g'ri yetkazishdir.

Yuqorida keltirilgan bayonotlardan ma'lumki, jahon miqyosida tarjimashunoslik sohasida qator ishlar olib borilmoqda, biroq, shunga qaramasdan mamlakatimiz bu sohadagi islohatlarni tor doirada ya'ni aksar holatlarda rus va o'zbek tili o'rtasidagi tafovutlarni taqqoslanib o'rganish bilan ortda qolmoqda. "Globallashuv va madaniyatlararo muloqot kuchaygani sari tillar va madaniyatlar o'rtasidagi tafovutni to'xtatuvchi resurslarga bo'lgan ehtiyoj yanada dolzarb bo'lib boraveradi" [A. Yusupov. 2024: 451]. Bu ishda lingvomadaniy birliklarni faqatgina bir tilda emas, balki bir nechta tillarda tahlil qilib o'rganish muhim deb o'ylaymiz.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunga qadar leksigraflar tomonidan madaniy so'zlarning tarjimasi davomida yuzaga kelyotgan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida bu kabi so'zlarning ekvivalent shaklini lug'atimizga kiritish maqsadida qator izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, shunday so'zlar borki bular ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamiyatning turmush tarzi, istifoda qilish vaqti bilan bog'langan bo'lib, bular aynan shu qavmga xos va ular uchun ekvivalent (bir xil ma'noni beroladigan so'z)ni topish imkonsiz. Lug'atshunoslik va tarjimada bu kabi bo'yoqdor va madaniy so'zlarni to'g'ri qo'llab, yozuvchining fikrini, his-tuyg'ularini va o'sha davr ruhini yaratib berish tarjimon uchun eng dolzarb maqsad va muhim vazifalardan biri sanaladi.

"O'tgan kunlar" asarining I.To'xtasinov tomonidan qilingan tarjimasida "fotiha" so'zi ingliz tiliga "fatiha" deya va davomida tasviriy tarjima uslubida ingliz tilida "a brief prayer in honour of a guest, often thanks for food and meals" ya'ni "mehmon sharafiga qisqa ibodat, aksar hollarda taom va oziq-ovqat uchun hamd(shukrona)" mazmunida tarjima qilingan. Ammo ushbu asarning ingliz tarjimoni Mark Reese tomonidan tarjimasida bu so'zga o'zgacha, kengroq yondashuv bilan e'tibor qaratilgan. Uning talqinida: "*Surat al Fatiha – "the Opening" is the first Sura of the Quran. It often holds the role as a prayer for everyday functions-from, in this case, breaking bread with guests, to beginning a common task such as opening a door for the first time, ladling plov from its kazan or blessing someone or something. Islam permeates almost all acts of life in Uzbekistan*" [M.Reese, 2018: 423]. Dastlab, bu so'z o'zbek tarjimonlari tomonidan ingliz tiliga o'giriyotganda uning gapdagi vazifasiga ko'ra qisqa tushuntirish berib o'tilgan, ammo ingliz tarjimoni bu so'zni o'zbek madaniyatidan kelib chiqib tarjima qilgan ekan, buni o'z tilida yanada o'quvchi uchun keng ma'noda qachon, qay ma'noda qo'llanishligi va nima uchunligini aniq tahlilini keltirgan. Shuningdek, ushbu asar davomida "sandal" so'zi tarjima jarayonida biroz g'alizlikka uchraydi, sababi bu so'z ingliz tiliga "maxsus kichik stol bilan o'ralgan va xonani isitish uchun narsa (arrangement for heating the room, covered with a special small table)" deb taqdim etiladi. Ammo so'zning bo'yoqdorligi, madaniyatni aks ettiruvchi xususiyati va ma'nosi, qayerdan kelib chiqqani, uning vazifasi va shu kabi jihatlar tarjimada o'z o'rnida to'liq va ravshan holatda bayon etilmagan. Bu esa tarjima tili bo'lgan ingliz tilida tushunmovchilikka yokida noto'g'ri tushuncha paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Boshqa bir misolda esa "Qutidor" so'zi bir asarning ichida ikki xil talqin etilganligiga shohid bo'lishimiz mumkin. Bir o'rinda bu oylik tarqatuvchi sifatida (Qutidor means a paymaster. he worked as a paymaster during his life, thus here the word is used as a nickname [I.To'xtasinov, 2017:14]) va bundan keyingi sahifada esa bu so'z himoyachi (Safe keeper) deya tarjimaga havola etilgan. Bu esa o'z o'rnida o'quvchida savol



tug‘ilishiga olib kelishi mumkin. Shu kabi muammolarni oldini olish maqsadida tarjimonlardan lingvomadaniy so‘zlar haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lishi va uni nuqsonsiz tarjimada to‘liq bayon eta olishi doimiy ravishda talab etiladi.

Xulosa. Tildan foydalanuvchilar soni oshib borishi bilan yangidan-yangi so‘zlar tilshunosligimizga kirib kelishi munosabati bilan lingvomadaniy so‘zlar ro‘yxati ham kengayib bormoqda. Ular aks ettiradigan zamon, makon, vaqt, holat va his-tuyg‘ularni tarjimada ifoda ettirish bugungi kunda tarjimashunoslar oldidagi eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dr Rafat, Alwazna Y. The Cultural Aspect of Translation: The Workability of Cultural Translation Strategies in Translating Culture-Specific Texts. - Kingdom of Saudi Arabia: Life Science Journal, 2014. - 1121.
2. Jacobson R. On Linguistic Aspects of Translation. - Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1959. - 297.
3. Qodiriy A. The Days Gone By: Novel. – Mashhur - Press, 2017 - 380.
4. Reese M. Bygone Days. - Nashville TN, Muloqot Cultural Engagement Program, 2018 - 498.
5. Yusupov A. So‘zlarning lingvomadaniy va leksikografik tahlili. - Xiva: Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi, 2024 - 556.
6. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/anton-chexov/anton-chehov-olchazor-drama/>
7. Kholikov, B. (2020). PATRIOTIC EDUCATION IN THE LITERARY PICTURE OF THE WORLD (ON EXAMPLES DETECTIVE NOVELS). In *МИССИЯ КОНФЕРЕНЦИИ «ФЕНОМЕН ПАТРИОТИЗМА В ТРАНССТРУКТУРНОМ КОММУНИКАЦИОННОМ ПОЛЕ»* (p. 157)
8. Холиков, Б. А. (2020). ИЖТИМОЙЙ-АХЛОҚИЙ МУАММОЛАРНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИДА ЁЗУВЧИ ИНДИВИДУАЛЛИГИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(6).
9. Kholikov, B. A. (2015). Poetic outcome of vital problems. In *The Fifth European Conference on Languages, Literature and Linguistics* (pp. 82-89).
10. Холиков, Б. (2024). Образы пери (феи) и дэв (бесов) в циклах узбекского эпоса “Гороглы”. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(5), 171-175.

